



THE REGIONAL SECURITY POLICY OF SAUDI ARABIA IN THE CURRENT ERA

Sabina Latipova

student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Middle East, Gulf region, "Iran International", "Vision 2030", "Saudi Arabian Military Industries" (SAMI), SCO, SAP regional security concept, "Hezbollah", Houthis, pan-Arabism.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: This article describes the place and role of Saudi Arabia in the international arena, in particular, the multi-faceted and comprehensive security policy it carries out in the Middle East region. It also provides detailed information on the country's regional security strategy and its main directions. Its relations with world and regional power centers, including the USA, China and Iran, are analyzed.

HOZIRGI DAVRDA SAUDIYA ARABISTONINING MINTAQAVIY XAVFSIZLIK SIYOSATI

Sabina Latipova

talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yaqin Sharq, Ko'rfaz mintaqasi, "Iran International", "Nigoh 2030", "Saudi Arabian Military Industries" (SAMI), ShHT, SAP mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasi, "Hizbulloh", xusiylar, panrabizm.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Saudiya Arabistonining xalqaro maydondagi o'rnini va roli, xususan, Yaqin Sharq mintaqasida olib borayotgan ko'pqirrali va keng qamrovli xavfsizlik siyosati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatning mintaqaviy xavfsizlik strategiyasi va uning asosiy yo'nalishlari to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan. Uning jahon va mintaqaviy kuch markazlari, jumladan, AQSh, Xitoy hamda Eron bilan munosabatlari tahlil qilingan.

**ПОЛИТИКА РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ САУДОВСКОЙ АРАВИИ В
СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ****Сабина Латипова**

студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ближний Восток, регион Персидского залива, «Иран Интернэшнл», «Видение 2030», «Военная промышленность Саудовской Аравии» (SAMI), ШОС, концепция региональной безопасности SAP, «Хизбалла», хуситы, панарабизм.

Аннотация: В данной статье описывается место и роль Саудовской Аравии на международной арене, в частности, многогранная и всеобъемлющая политика безопасности, которую она проводит в ближневосточном регионе. Также представлена подробная информация о стратегии региональной безопасности страны и ее основных направлениях. Анализируются его отношения с мировыми и региональными центрами силы, включая США, Китай и Иран.

KIRISH

Yaqin Sharq mintaqasi arab davlatlari orasida Saudiya Arabistoni Podshohligi (SAP) o'ziga xos siyosiy-iqtisodiy mavqega ega davlatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni mintaqaning boshqa arab davlatlari hamda arab bo'lmagan davlatlarida islom dinining paydo bo'lishi beshigi ekanligi, jumladan, muqaddas islom qadamjolari joylashganligini va arab olamining eng neftga boy davlati ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu esa Saudiya Arabistoni oldiga nafaqat milliy xavfsizlik masalalarini, balki mintaqaviy xavfsizlik muammolarini ham parallel ravishda hal etish vazifasini yuklaydi [1].

ASOSIY QISM

Xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sharoitida Yaqin Sharq jahon siyosiy xaritasida muhim "qaynoq nuqta"lardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu mintaqa tabiiy resurslarga, xususan, neft zaxiralariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu esa o'z navbatida, yirik kuch markazlarini mintaqadagi siyosatini amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, AQSh va Xitoy manfaatlari to'qnashuvini kuzatish mumkin. Saudiya Arabistoni Vazirlar Mahkamasining Xitoy boshchiligidagi xavfsizlik xalqasiga qo'shilish qarorini ma'qullashi Ar-Riyod va AQSh o'rtasidagi ayrim manfaatlar doirasining buzilishiga olib kelmoqda [2]. Vaholanki, xalqaro munosabatlarda Saudiya Arabistonining Xitoy bilan yaqinlashuvini AQSh bilan uzoqlashishi sifatida baholash munozarali sanaladi. Zero, Saudiya Arabistoni 2021-yilda mudofaa xarajatlari bo'yicha AQSh, Xitoy, Hindiston, Rossiya va Buyuk Britaniyadan keyin dunyoda 6-o'rinni egalladi. Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqot instituti ma'lumotlariga ko'ra, Saudiya

Arabistoni qurol-yarog'ning qariyb 80 foizini AQShdan import qiladi [3]. Shuning o'ziyiq Saudiya Arabistoni harbiy salohiyati AQShga nihoyatda bog'lanib qolganini tasdiqlaydi. Bugungi kunga kelib xavfsizlikni ta'minlash uchun harbiy qudrat va iqtisodiy boylikdan tashqari g'oyaviy asos ham bo'lishi lozim. Saudiya Arabistonining mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan uchta asosiy yo'nalishlari mavjud bo'lib, bular quyidagilar: Ko'rfaz mintaqasi, jumladan, Yaman ustidan nazorat o'rnatish, Yaqin Sharqda Saudiya Arabistoniga raqobatchi mintaqaviy kuch paydo bo'lishining oldini olish va mintaqada panarabizimning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu uch yo'nalish Ar-Riyod mintaqaviy xavfsizlik strategiyasi asosini tashkil etadi [4]. Quyida ularning har biriga batafsil to'xtalib o'tamiz:

Ko'rfaz mintaqasi. Saudlar rejimining Ko'rfaz mintaqasiga nisbatan tashqi siyosati ushbu mintaqaga tashqi kuchlar (Eron, Iroq kabi) tomonidan ta'siri o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Saudiya Arabistoni Ko'rfaz mintaqasini o'zining ta'siri doirasida deb biladi va unga qarshi bo'lgan har qanday tahdidga keskin javob qaytaradi. Ko'rfaz mintaqasi dunyodagi eng boy energiya manbalariga ega. Saudiya Arabistonining eng muhim neft konlari Ko'rfaz sohilida joylashgan va ayni paytda Ko'rfaz mintaqasi Saudiya neftini xalqaro bozorlarga tashish yo'li hisoblanadi.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining yaqin qo'shnisi Yaman bilan aloqalarida ko'plab muammolari bor. SAP Yamanning siyosiy zaif bo'lishidan manfaatdor, chunki Yamanning Saudiya janubidagi notinch chegaralari Qizil dengiz va Hind okeanidagi strategik joylashuvi, shuningdek, Eron tomonidan mahalliy xusiylarning qo'llab-quvvatlanishi kabi omillar Saudlar rejimi uchun jiddiy tahdid sifatida ko'riladi. Bizning e'tiborimizni tortgan muhim jihatlardan biri Saudiya Arabistonining barcha neft mahsulotlari eksportini Ormuz bo'g'ozi orqali amalga oshirilishidadir [5].

Saudiya Arabistoni hozirda O'monda xusiylar bilan doimiy kelishuv bo'yicha bir tomonlama muzokaralar olib bormoqda. Saudiya Arabistoni Xitoy vositachiligida 2023-yil 10-mart kuni Eron bilan o'zaro diplomatik munosabatlarni tiklash bo'yicha kelishuvni e'lon qildi. Kelishuvning bir qismi sifatida Eron xusiylarning Saudiya Arabistoniga transchegaraviy raketa hujumlarini rag'batlantirishni to'xtatishga va guruhga barcha yashirin qurol-yarog' yetkazib bermaslikka va'da berdi. Buning evaziga Saudiya Arabistoni Ar-Riyod tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani taxmin qilingan fors sun'iy yo'ldosh kanali "Iran International"ning ritorikasini kamaytirishga rozi bo'ldi. Eronning BMTdagi missiyasida shuni ko'rishimiz mumkinki, Yamandagi urushni tugatish uchun bir yo'l ochildi. BMTning Yaman bo'yicha maxsus vakili Xans Grundberg bir necha kundan keyin BMT Xavfsizlik Kengashida Eronning ta'siri va uning janubiy chegarasida "Hizbulloh"ga o'xshash guruh paydo bo'lishidan xavotirlanish Saudiya Arabistonini Yamanda xusiylarga qarshi harbiy amaliyotlar boshlashiga olib kelganini ma'lum

qildi. Endi Saudiya Arabistoni Yamanda urush boshlaganidan sakkiz yil o'tib, undan chiqishning diplomatik yo'lini qidirmoqda [6]. Rivojlanayotgan eron-xusiy munosabatlari Yaman mojarosini tugatish uchun mushkulliklar tug'dirmoqda. Bu masalalar Sudiya Arabistonining mintaqaviy xavfsizlik siyosatiga katta ta'sir qilishi bilan birga uni tezroq hal qilishni ham taqozo etadi.

Mintaqaviy raqobatchilarga qarshi kurash. SAPning mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazarining ikkinchi yo'nalishi Yaqin Sharq mintaqasida unga raqib bo'lishi mumkin bo'lgan mintaqaviy kuch markazlarining paydo bo'lishi va uning kuchayishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. SAP Yaqin Sharq mintaqasida gegamonlik o'rnatish orqali rejimga qarshi bo'lgan siyosiy bosimlarni oldini oladi.

Avvalo, Saudiya Arabistoni bu ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirish uchun qurolli kuchlariga katta e'tibor bermoqda va bu yo'lda turli islohotlarni olib bermoqda. SAPning "Nigoh 2030" deb nomlanuvchi iqtisodiyotni qayta tashkil etish va diversifikatsiya qilish bo'yicha hukumat rejasi qurol sanoatini rivojlantirish bo'yicha ambitsiyalarni o'z ichiga oladi. Maqsad "2030-yilga kelib SAPning harbiy texnikasi xarajatlarining 50 foizdan ortig'ini mahalliyashtirish" va bir nechta kompaniyalarni birlashtirish orqali "Saudi Arabian Military Industries" (SAMI) yangi kompaniyasini yaratishdan iborat. Shu jihatdan, SAMI "2030-yilgacha global harbiy sanoat sektorida yetakchi rolni o'z zimmasiga olishni" [7] maqsad qilgan yirik loyihalaridan biri sanaladi.

Etnik va diniy mojarolar. Saudiya Arabistoni Yaqin Sharqda etnik va diniy mojarolarni o'z rejimi uchun jiddiy tahdid sifatida qabul qiladi, chunki bunday to'qnashuvlar panarabizm g'oyasini yangidan kuchaytiradi va butun mintaqaga tarqaladi, degan qarashga ega. Masalan, 1980-yildagi Eron-Iroq urushi va 2006-yildagi Hizbulloh-Isroil mojarosi sharqiy viloyatdagi shialar orasida katta namoyishlarga sabab bo'ldi. Bu jarayonlar Saudiya Arabistonining mintaqaviy xavfsizlik siyosatiga katta tahdid solayotgan va ularga yechim izlashga undayotgan sabablardandir.

Yaqin Sarq mintaqasida gegemonlik qilish uchun kurash. Yillar davomida Saudiya Arabistoniga Eron mintaqaviy raqib bo'lib kelgan. Eron va Saudiya o'rtasidagi munosabatlar 1979-yilda Eronda Islom inqilobiga qadar barqaror rivojlangan edi. Aynan inqilobdan so'ng ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar keskinlik bosqichiga kirdi, bunga qator omillar sabab bo'ldi:

Dastlabkisi, *Eron Islom inqilobini eksport qilish g'oyasi*. Eron o'z tashqi siyosatida Islom inqilobini boshqa islomiy mamlakatlarga eksport qilishi haqida ma'lum qilgach, bundan birinchi bo'lib Saudiya Arabistoni xavotirga tushdi, chunki o'sha yillarda Saudiya elitasiga qarshi bunday kayfiyatlar allaqachon kuchayib ulgurgan edi. Birgina 1979-yilda Muhammad al-Qahtoni va Juhayman al-Utayba boshchiligida terrorchilar muqaddas Makkani qamal qilgan vaqtdan Saudiya shahzodalari-yu sultonlarini jiddiy xavotirlar qamrab olgan edi.

Ikkinchisi, *Arab davlatlari Eronga qarshi koalitsiya tuzishi*. Saudiya Arabistoni Eron ta'sirini susaytirish va yetakchilik rolini egallash maqsadida o'z atrofida Fors ko'rfazining boshqa mamlakatlarini birlashtirishga kirisha boshladi.

Bugungi davrga kelib ancha yillardan buyon buzilgan munosabatlar tiklandi. Bunga turli sabablar mavjud. 2023-yilning 10-martida Saudiya Arabistoni va Eron Pekinda bo'lib o'tgan muzokaralar asosida diplomatik munosabatlarni tiklash bo'yicha kelishuvga erishganini e'lon qildi. Xitoy o'zini kelishuvning vositachisi sifatida ko'rsatdi [8]:

1. SAP va Eron munosabatlarining tiklanishi masalasi Prezident Ibrohim Raisiyning o'tgan oy Pekingga tashrifi chog'ida ilgari surildi. Bir necha vaqt davomida Saudiya Arabistoni Eronda qabul qilingan rejimni tanqid qiluvchi fors tilidagi xorijiy teleradiokompaniya "Iran International" qo'llab-quvvatlab, Eronga bosim o'tkazar edi. Prezident Raisiy 2021-yil avgust oyida lavozimga kirishganidan beri u mintaqaviy qo'shnilar bilan keskinlikni kamaytirish siyosatini ustuvor vazifa ekanligini e'lon qildi. Ehtimol, Si Szinpin yopiq eshiklar ortida Saudiya qirolidan Eron muammosini hal qilib bersa, evaziga Ar-Riyod ShHTga qo'shilish kerakligini ta'kidlagandir!? Chunki shu yilning mart oyi boshida Pekinda bo'lib o'tgan Saudiya va Eron o'rtasidagi diplomatik munosabatlarini qayta tiklashga qaratilgan muzokaralar ijobiy yakunlanganiga bir oy bo'lib ulgurmasdan, Ar-Riyod ShHTga to'liq a'zo bo'lish to'g'risidagi memorandumni ma'qulladi [9].

Saudiya Arabiston va Eron o'rtasida mintaqa bo'ylab turli xil tafovutlar mavjud bo'lib, ular ko'pincha ishonchli shaxslar orqali kurashgan. Eron uzoq vaqtdan beri Livanning "Hizbulloh" tashkilotini, Saudiya Arabistoni esa sunniy siyosatchilarni qo'llab-quvvatlab kelgan. Ar-Riyod va Tehron o'rtasidagi taranglikni yumshatish, bu ikki tomonni misli ko'rilmagan moliyaviy inqirozga yuz tutayotgan Livanda siyosiy murosaga undashi mumkin bo'lmoqda. Eron Suriya Prezidenti Bashar Asadni uzoq davom etgan urushda qo'llab-quvvatlagan, Saudiya Arabistoni esa uni ag'darishga intilayotgan isyonchilarni qo'llab-quvvatlagan. Biroq, so'nggi oylarda, ayniqsa, Suriya va Turkiyani vayron qilgan zilziladan so'ng, arab davlatlari Asad bilan yaqinlashish siyosatidan bormoqda. Isroil Bosh vaziri Benyamin Netanyaxu Saudiya Arabistoni bilan munosabatlarni normallashtirishni istamoqda, ammo Isroilning azaliy dushmani bo'lgan Eron bilan Saudiyaning kelishuvi buni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, agar Isroil Eron yadroviy dasturiga qarshi harbiy zarba berishga qaror qilsa, u Yaqin Sharq mintaqasida yolg'izlanib qolishi mumkin. Isroil bilan munosabatlarni allaqachon normallashtirgan va uzoq vaqtdan beri Tehronga shubha bilan qaragan Birlashgan Arab Amirliklari ham Eron bilan keskinlikni yumshatishga harakat qilmoqda [10]. Eron 2015-yilda jahon kuchlari bilan imzolagan yadroviy kelishuvning barbod bo'lishi ortidan xalqaro sanksiyalarga duch keldi. Saudiya Arabistoni-Eron kelishuvi Tehronga sanksiyalarni chetlab o'tish uchun yangi yo'llarni ochib berishi mumkin.

Eron Rossiya bilan aloqalarini chuqurlashtirib, Ukrainaga qarshi urushda Moskvaning bomba tashuvchi uchuvchisiz samolyotlar bilan qurollantirib ham kelmoqda. Umuman, Saudiya-Eron yaqinlashuvi Yaqin Sharqdagi kuchlar muvozanatiga hamda xavfsizlik arxitekturasiga jiddiy ta'sir qiladi.

2. Avvalo, bu muzokaralar Xitoyning obro'sini oshiradi. Xitoy yuborayotgan muhim xabar shundan iboratki, Qo'shma Shtatlar Fors ko'rfazidagi asosiy harbiy kuch bo'lsa-da, Xitoy mintaqada kuchli va o'sib borayotgan diplomatik vositachiga aylandi. Bu butun dunyo bo'ylab Xitoyning kuchi va ta'sirini idrok etishni kuchaytiradi va AQShning global qudrati haqidagi hikoyaga barham berishi mumkin. Shu sababdan Xitoy Yaqin Sharqda kuchli o'yinchiga aylanmoqda, deyish mumkin. Xitoy so'nggi vaqtlarda Saudiya Arabistonining eng yirik neft eksport hamkoriga ham aylanmoqda.

3. Qo'shma Shtatlar bu kelishuvga vositachilik qila olmas edi, chunki u Eron bilan bevosita aloqada emas. Bayden ma'muriyati mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha muloqotlarning ahamiyati haqida gapirib, bu kelishuvni umumiy ma'noda qo'llab-quvvatlasa ham bu Vashington uchun jiddiy xavotirlarni paydo qiladi. Ammo, Saudiya Arabistonining AQShni butunlay chetlab o'tgandek kelishuvga erishgani, Ar-Riyodning mustaqil tarzda xavfsizlikka intilishlarini diversifikatsiya qilishga intilayotgani va to'liq Qo'shma Shtatlarga tayanmaslik uchun harakat qilayotganidan dalolat beradi.

3. 2021-yilda AQShda hokimiyat tepasiga demokratlardan hisoblangan Jo Bayden kelgach, Vashingtonning Yaqin Sharq masalasida qarashlari biroz o'zgardi. Bu Saudiya bilan qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirdi. Albatta, bunga bir necha sabablar mavjud. Xususan, Ar-Riyod doim Bayden ma'muriyati oldiga bir nechta talablarni qo'yib keladi. Bular:

Birinchi – aslida mamlakatni boshqarib kelayotgan valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon al-Saud prezident Jo Baydendan mamlakat oliy hokimiyatiga da'volarini rasman tan olishini istaydi.

Ikkinchi – 2014-yilda boshlanib, hozirgi vaqtgacha davom etib kelayotgan Yamandagi fuqarolar urushida AQSh pozitsiyasini o'zgartirish va Yamanda joylashgan Saudiya Arabistoni koalitsiyasini qo'llab-quvvatlash.

Uchinchi – Eronni qo'llab-quvvatlovchi xusiy isyonchilariga qarshi birgalikda kurashish, Eronning yadro dasturini muzlatish va xavfsizlik kafolati.

Ammo, Jo Bayden ma'muriyati shu vaqtga qadar Saudiyaning bu chaqiriqlarga jo'yali javob qilmadi. Aksincha, 2022-yilda Rossiya va Ukraina o'rtasida urush boshlangach, AQSh hukumati jahonda neft narxini pasaytirish uchun Ar-Riyoddan neft qazib olishni ko'paytirishni talab qildi. Bu ishdan asl maqsad Rossiyaning neft savdosidan olayotgan mablag'ini kamaytirish edi. Neft

narxining pasayishi Saudiya Arabistoni uchun ham yaxshigina zarar edi. Bu vaziyatda Ar-Riyod talablarini inobatga olmay kelayotgan Amerikaga rad javobini berdi.

Saudiya Arabistonining AQSh bilan ziddiyatga borishi, Ar-Riyodni o'ziga boshqa ishonchli hamkor topishga undadi. Bu paytda Saudiya manfaatlariga mos ravishda javob bera oladigan davlat bu tabiyki Xitoy edi.

Shu o'rinda "Saudiya uchun nega Rossiya emas", degan savol paydo bo'lishi mumkin. Bu yerda Moskva va Ar-Riyod jahon bozorida neft sotish bo'yicha raqobatchi ekanligini unutmazlik lozim.

Saudiya uchun Xitoydan boshqa mos hamkor yo'qligini anglagan Si Szinpin 2022-yilning dekabr oyida Ar-Riyodga tashrif buyurdi. Bu esa Saudiya va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikni jadal suratda o'sishi uchun katta dastak bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qilganda hozirgi davrda Saudiya Arabistoni o'z mintaqaviy xavfsizlik siyosatida AQSh boshchiligidagi kollektiv G'arb yo'nalishiga tayanib qolish maqsadlarini o'zgartirmoqda. Bu borada Xitoy vositachiligida Eron bilan diplomatik aloqalarning qayta tiklanishi, shu asnoda Saudiya Arabistonning SHHTga a'zo bo'lishi jarayonlarining faollashuvi Ar-Riyodning kollektiv Sharq yo'nalishiga jiddiy e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bo'ronov, S., Azimov, H. (2023) Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar. Toshkent: "EFFECT-D". b.136.
2. Iordache R (MAR 29 2023) Saudi Arabia takes step to join China-led security bloc, as ties with Beijing strengthen. CNBC. Retrived from <https://www.cnn.com/2023/03/29/saudi-arabia-takes-step-to-join-china-led-security-bloc-as-ties-with-beijing-strengthen.html>
3. INTERNATIONAL TRADE ADMINISTRATION (June 6, Saudi Arabia - Country Commercial Guide022) Retrived from: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/saudi-arabia-defense-security>
4. O'sha manba: b.142
5. Bo'ronov, S., Azimov, H. (2023) Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar. Toshkent:"EFFECT-D", b.142.
6. Gregory D.Johnsen (Mar 20,2023) Saudi Arabia's Big Bet in Yemen. Retrived from <https://agsiw.org/saudi-arabias-big-bet-in-yemen/>
7. Pieter D.Wezenan (December 14,2018) Saudi Arabia, armaments and conflict in the Middle East <https://www.sipri.org/commentary/topical-backgrounder/2018/saudi-arabia-armaments-and-conflict-middle-east>

8. Jon B.Alterman (March 10,2023) Why Did China Help Saudi Arabia and Iran Resume Diplomatic Ties? <https://www.csis.org/analysis/why-did-china-help-saudi-arabia-and-iran-resume-diplomatic-ties>
9. Jeddah (March 29,2023) Custodian of the Two Holy Mosques Chairs Cabinet's Session <https://www.spa.gov.sa/viewstory.php?lang=en&newsid=2439086>
10. Via AP news wire (March10, 2023) Countries that could be impacted by renewed Iran-Saudi ties <https://www.independent.co.uk/news/world/americas/us-politics/ap-iran-united-arab-emirates-bashar-assad-dubai-b2298358.html>